

O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK MASALALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti,
Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli o'qituvchisi, podpolkovnik
Melikulov Nurjov Latifovich.
Telefon: +998990006714*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida”gi qonunni takomillashtirish orqali inson qadrini va huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, mamlakatimizda uzoq vaqtdan beri yashab kelayotgan, lekin O'zbekiston fuqarosi degan huquqiy maqomga ega bo'la olmayotgan minglab yurtdoshlarimizning muammosini qonuniy hal etish borasida amalga oshirilgan islohotlar xususida mulohazalar yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы, реализуемые в целях обеспечения человеческого достоинства и прав путем совершенствования Закона «О гражданстве Республики Узбекистан» и правового решения проблем тысяч наших соотечественников, которые длительное время проживают в нашей стране, но не могут получить правовой статус граждан Узбекистана.

Annotation: In this state, reforms are implemented, realized in the goal of ensuring human dignity and the law on citizenship of the Republic of Uzbekistan, and the legal solution to the problem of thousands of fellow citizens who have been living in our country for a long time and cannot obtain legal status from citizenship to Uzbekistan.

Kalit so'zlar: fuqarolik shaxsning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi, inson qadr-qimmati, asosiy huquqlari, erkinliklari.

Ключевые слова: права, обязанности, ответственность гражданина во взаимоотношениях с государством, человеческое достоинство, основные права и свободы.

Keywords: rights, obligations, responsibility of a citizen in their relationship with the state, human dignity, fundamental rights, and freedoms.

Jamiyatning barcha jabhalarida olib borilayotgan islohotlarda bevosita ishtirok etmoqdamiz va ushbu islohotlarning barchasi huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishga qaratilayotganligiga hamda yurtimiz taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning mustahkam asosi bo'lib xizmat qilayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson qadrini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu-tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak.

Barchamizga ayonki, inson manfaatlarini yurt tinchligi, jamiyatimizdagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidan ajratgan holda tasavvur etolmaymiz. Bularning barchasi bizning bebaho boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek saqlash har birimizning muqaddas burchimizdir.¹

So'nggi yillarda mamlakatda fuqarolik masalalarini yoki bo'lmasa migratsiya munosabatlarini tartibga solish zarurati davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada qonunlar qabul qilindi va amaldagi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Shu bois davlat rahbarining tashabbusi bilan xavfsizlik tizimini barqarorlashtirish, respublikada tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Demokratik islohotlar yo'li – biz uchun yagona va eng to'g'ri yo'lligini, «Jamiyat – islohotlar tashabbuskori» degan yangi g'oya, kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib borayotganligini, endi esa islohot jamiyatdagi haqiqiy holatdan kelib chiqib belgilanishini, xalqni qiynayotgan muammolar esa ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi kayfiyatlar, xalq qabulxonalari va boshqa “barometrlar” orqali aniqlanishini – Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev parlamentga murojaatida ta'kidlab o'tdi².

Murojaatda bugungi kunda ayrim aholi qatlamini yillar davomida qiynab kelgan muammolarga ham to'xtalib o'tildi.

Jumladan, birgina fuqarolik masalalariga oid qonunchilikni takomillashtirish orqali inson huquqlarini ta'minlash borasida navbatdagi muhim qadam qo'yish zarurligini hayotning o'zi taqozo etayotganligini, ayniqsa, mamlakatimizda uzoq vaqtdan beri yashab kelayotgan, lekin O'zbekiston fuqarosi degan huquqiy maqomga ega bo'la olmayotgan minglab yurtdoshlarimizning ana shu muammosini qonuniy hal etish bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko'rish vaqti kelganligini, xususan, 1995 yilgacha O'zbekistonga kelgan va shundan buyon istiqomat qilayotgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini to'g'ridan-to'g'ri berish tartibi belgilandi, shu tariqa minglab yurtdoshlarimizning fuqarolik bilan bog'liq uzoq yillardan buyon yechilmasdan kelayotgan muammolari hal etilishi buning yorqin misolidir.

¹Sh.M. Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., «O'zbekiston», 2017.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – 2020. – 25 yanv.

Shu munosabat bilan, 2020-yil 13-mart kuni O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'RQ-610-son qonuni yangi tahrirda qabul qilinib, unda O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olish va tugatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishi bilan birga, O'zbekiston Respublikasida fuqarolik shaxsning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig'indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmatini, asosiy huquqlari va erkinliklarini e'tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining butun hududi uchun yagona fuqarolik o'rnatilib, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi айна бир вақтда O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanligi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasida har bir inson fuqaro bo'lish huquqiga ega ekanligi, hech kim O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum qilinishi (qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno) yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emasligi ushbu qonunda ifoda etildi.

O'zbekiston Respublikasi o'z organlari va mansabdor shaxslari orqali O'zbekiston Respublikasi fuqarolari oldida mas'ul ekanliklari, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi esa davlat oldida mas'ul ekanligi mazkur qonun bilan mustahkamlandi.

Jumladan, «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonunning 6-moddasida fuqaroligi bo'lmagan shaxsga nisbatan O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tan olish tartibi belgilab berildi, bular:

2005-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan hamda muqaddam chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxs xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinishi;

O'zini O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan kunga qadar O'zbekiston Respublikasida kamida o'n besh yil doimiy yashab kelayotgan va mazkur davr mobaynida chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinishi;

Ota-onasidan biri (yolg'iz otasi yoki onasi) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olingan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan va O'zbekiston Respublikasida yashab kelayotgan bola xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.

Ushbu moddaning **birinchi** va **ikkinchi qismlarida** nazarda tutilgan faktlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, ariza beruvchi ushbu faktlarni sud

tartibida aniqlashi mumkinligi belgilab qo'yilishi, qonunlar inson qadri birinchi o'rinda ulug'lanishining yorqin misolidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasida o'zbek tilidagi nutqida, bir qator masalalar va takliflarni ilgari surish barobarida, jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida yangi O'zbekiston shakllanayotganligini, bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tus olganligini hamda inson huquqlari sohasidagi holat ham butunlay o'zgarganligini, inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya qabul qilinganligini, Birlashgan Millatlar Tashkilotining fuqaroligi bo'lmagan insonlar sonini kamaytirishga qaratilgan chaqirig'iga javoban, shu yilning o'zida O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi 50 ming yurtdoshimizga O'zbekiston fuqaroligi berilganligini aytib o'tdi.³

Bu o'z navbatida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasi ishtirokchilari tomonidan olqishlandi.

Respublikamizda olib borilayotgan ushbu xayrli va ijobiy islohotlar, shuningdek, inson huquqlarini, manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar o'z navbatida jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonida fuqarolik masalalariga oid qonunchilikni takomillashtirish orqali inson huquqlarini ta'minlashga, inson qadrini ulug'lashga, ayniqsa, yurtimizda uzoq yillardan beri yashab kelayotgan, lekin "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi" – degan huquqiy maqomga ega bo'la olmayotgan minglab yurtdoshlarimizning muammolari hal etilishiga, orzu-istaklarini ruyobga chiqarishga, eng asosiysi ularning hayotdan rozi bo'lishlariga va jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lishiga, eng asosiysi inson qadrini ulug'lashga qaratilgan.

Respublikamizda uchinchi renessans poydevorini qurish borasida olib borilayotgan ushbu xayrli va ijobiy islohotlar inson qadrini, huquqlarini, erkinligini hamda ularning manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy e'tirof etilmoqda va O'zbekiston o'z imijini o'zgartirishda ulkan yutuqlarga erishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi 2020 yil 13 mart O'RQ-610-son qonuni;

³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/3851> (23.09.2020).

2. Sh.M. Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., "O'zbekiston", 2017;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – 2020. – 25 yanv.;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/3851> (23.09.2020);
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yangi O'zbekiston" nashri <https://yuz.uz/news/> (21 iyun 2021).